ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ
ЎЗБЕКИСТОН ХОТИН-ҚИЗЛАР “OLIMA” УЮШМАСИ
OWSD МАРКАЗИЙ ОСИЁ БЎЛИМИ
ЮНЕСКОНИНГ ТОШКЕНТДАГИ ВАКОЛАТХОНАСИ

***ЎЗБЕКИСТОН ХОТИН-ҚИЗЛАР “OLIMA” УЮШМАСИНИНГ***
***30 ЙИЛЛИК ЮБИЛЕЙИГА БАҒИШЛАНГАН***

# Барқарор ривожланиш мақсадларига эришишда хотин-қизларнинг роли

халкаро илмий-амалий анжуман материаллари
II - Китоб

# Роль женщин в достижении целей устойчивого развития

Материалы международной научно- практической конференции
II - Книга

# The role of women in achieving the goals of sustainable development

International scientific-practical conference
II - Book

Ўзбекистон хотин - қизлар "Олима" уюшмасининг 30 йиллигига бағишланган "Барқарор ривожланиш мақсадларига эришишда хотин- қизларнинг роли" мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. 23 - ноябр 2022 йил. Тошкент: Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети, 2022. – 440 б.

ISBN

Ўзбекистон Республикаси хотин-қизлар "Олима" уюшмаси ташкил этилганлигининг 30 йиллигига бағишланган ушбу халқаро илмий мақолалар тўплами 2 қисмдан иборат бўлиб, 2-қисмида олималарнинг ижтимоий-гуманитар фанлар соҳасида эришилган ютуқлари ва келажак фанининг истиқболлари ҳақидаги ғоялар илгари сурилган. Аёллар ижтимоий фаоллигининг сарҳисоби ҳисобланган ушбу тўплам мақолаларидан дунё ва Ўзбекистонда аёлларнинг жамият тараққиётига қўшаётган ҳиссасини таҳлил этишга бағишланган илмий тадқиқот ишларида фойдаланишлари мумкин.

Материалы международной научно-практической – конференции приуроченной к 30-летию ассоциации женщин- учёных Узбекистана "Олима" «Роль женщин в достижении целей устойчивого развития» 23 ноября 2022 года. Ташкент: Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, 2022. – 440 с.

ISBN

Данный сборник международных научных статей, посвященный 30 летию организации ассоциации женщин «Олима» Узбекистана состоит из 2-х частей, в его второй части изложены суждения женщин, работающих в сфере социально-гуманитарного знания о содержании реформ проводимых во всех сферах общества и их значении. Материалы данного сборника могут быть использованы в научных исследованиях, посвященных анализу вклада женщин в развитие общества.

Materials of the international scientific and practical conference devoted to the 30th anniversary of the association of women's scientists of Uzbekistan "Olima" "The role of women in achieving sustainable development goals" on November 23, 2022. Tashkent: National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, 2022. - 440 p.

ISBN

This collection of international scientific articles, devoted to the 30th anniversary of the organization of the women's association of Uzbekistan "Olima", consists of 2 parts, its second part contains the opinions of women working in the field of social and humanitarian knowledge about the content of reforms carried out in all spheres of society and their significance. The materials of this collection can be used in scientific research devoted to the analysis of women's contribution to the development of society.

| | |
|---|---|
| **Масъул муҳаррирлар:** | **Ширинова Раима Хакимовна**<br>Ўзбекистон Миллий университети халқаро алоқалар бўйича проректори, профессор, филология фанлари доктори |
| | **Муртазаева Раҳбархон Ҳамидовна**<br>Ўзбекистон Миллий университети профессори, тарих фанлари доктори |

**Таҳририят ҳайъати**

| | |
|---|---|
| **Абдураҳмонова Нилуфар Зайнобиддин қизи** | **Ўзбекистон Миллий университети** профессори в.б., филология фанлари доктори |
| **Абдуллаева Барно Сайфуддиновна** | **Низоми номидаги Тошкент давлат педагогика университети илмий ишлар бўйича проректори,** профессор, педагогика фанлари доктори |
| **Базарова Дилдора Бахадировна** | **Тошкент давлат юридик университети** профессори, юридик фанлари номзоди |
| **Ишонходжаева Замира Райимовна** | **Ўзбекистон Миллий университети** профессори, тарих фанлари доктори |
| **Шермухамедова Нигинахон Арслоновна** | **Ўзбекистон Миллий университети** профессори, фалсафа фанлари доктори |

Metafora hosila ma’no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U, tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma’no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari o‘zaro o‘xshash kelishiga asoslanadi.[5]

D.Xudoyberganovaning tasnifiga ko‘ra, kognitiv metaforalar so‘z shaklidagi, so‘z birikmasi shaklidagi, gap va mikromatn shaklidagi metaforalarga bo‘linadi.[6]

Mehnat haqidagi maqollarida metafora asosidagi nom ko‘chishi eng sermahsul usul hisoblanadi. Masalan, *“Yer boylikning onasi bo‘lsa, Otasi – mehnat”* yoki *“Yer-ona, suv –ota, mehnat-boylik”* maqollarida qo‘llangan *ona, ota* so‘zlari metaforik ma’no kasb etgan.

Maqollarda metafora qisqargan o‘xshatish shaklida beriladi. Bunda maqol matnida dastlab predmetning asl nomi, keyin metaforik nom keltiriladi. Masalan, *“Yer-xazina, mehnat kaliti”, “Daraxt-havodan, odam-mehnatdan”, “Odam-gavhar, qo‘li-gul”* kabi maqollarda metaforik nom ko‘chishi ana shunday yuz beradi. Agar metaforalar yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lsa, ular nomlayotgan predmet tema, metaforik nom esa rema hisoblanadi. Demak, bunday maqollar mazmunan tema-rematik munosabatni namoyon qiladi. Mana shunday mazmundagi xalq maqollarida anemonimlar metaforik nomga ega bo‘ladi. Masalan, *“Mehnat va o‘qish –og‘a-ini”* maqolida mehnat va o‘qishning birligi *og‘a-ini* juft so‘zida o‘z ifodasini topadi. *“Mehnatli non-shakar, mehnatsiz non-zahar”, “Mehnatsiz bilak-o‘rinsiz tilak”, “Mehnatsiz turmush-tuzsiz osh”* kabi maqollar ham shu tarzda shakllangan.

Ayrim o‘rinlarda metaforik nom sinekdoxa bilan qorishib ketadi. Shunday bo‘lsa-da, bu birliklar qism-butun munosabatidan ancha yiroqlashgani bois metaforik nomga aylanadi. Masalan, “*Sher himmati – bilak, Er himmati – yurak”* xalq maqolida metaforik asosda bilak leksemasida *kuch* semasi, *yurak* leksemasida “toza qalb”, “chin ko‘ngil” semalari reallashgan.

*“Oq qo‘l –osh egasi, kuch qo‘l-ish egasi”* maqolida ham *oq qo‘l* va *kuch qo‘l* birikmalarida metaforik ma’no yashiringan.

Ba’zi maqollarda metaforik nom tushunchasi *kelmoq* fe’li bilan ham qo‘llanishi mumkin: *Mashaqqatsiz baxt kelmas, mehnatsiz taxt kelmas.* Demak, metaforik nomda predmetga xos belgilar bo‘rttirilgan bo‘ladi. Bu esa metaforani har qanday badiiy matnning mubolag‘aviy xususiyatini namoyon etuvchi omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mehnat tushunchasi aks etgan xalq maqollarida metaforik mazmun kasb etgan maqollar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi va ularning lisoniy tahlili tilshunoslik uchun muhim faktlarni taqdim qiladi.

**Adabiyot:**


1. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. –Т.: “Мумтоз сўз”, 2010. –Б.61.
2. Черемисина М.И. Сравнительные конструкции русского языка. –Новосибирск: Наука, 1976. - С. 5-7.
3. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. –Т., 1983. – Б. 24.
4. Қобулжонова Г. Метафора моҳияти ва турлари// Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. –№ 6.
5. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т., 2010. – Б. 94.
6. Худойберганова Д. Матннинг мазмуний таркибида метафоралар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. –№ 1. Б.36.


## ONA TILI TA’LIMIDA YOZMA NUTQNI O‘STIRISH MUAMMOLARI


***K. Mavlonova***

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*
*O‘zbekiston Respublikasi*


Ta’lim mazmunini isloh qilish va uni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish bilan bog‘liq jarayonda ona tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda “Ona tili” darsliklarining yangi avlodi kommunikativ va kognitiv-pragmatik yondashuvlar asosida takomillashtirilmoqda.

Nutqiy faoliyatning har bir turi (o‘qish, eshitish, og‘zaki va yozma nutq) orqa miya yarimsharlar po‘stlog‘idagi alohida-alohida markaz va zonalarda joylashganligi, ularning biri shakllantirilsa, bu bilan ikkinchisi ham shakllanib qolmasligi psixolingvistlar tomonidan aniq ma’lumot va xulosalar asosida

tushuntirib berilgan. Shunday bo‘lgach, darsda ulardan bittasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish, darsning maqsadini umumiy va mavhum bo‘lgan “nutq o‘stirish” deb emas, nutqiy faoliyatning aynan bir turini ajratish, qaysi parametr ustida ish olib borilishi belgilab olinishi zarur.

Ma’lumki, yozma nutqning shakllanishi va rivojlanishi maktabdagi o‘quv jarayonlari va maxsus o‘quv materiallari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgani sababli yozma nutq akademik til malakasi hisoblanadi hamda insonning o‘qish va ish faoliyatida katta ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishga qaratilgan tadqiqotlarda og‘zaki va yozma ish turlari asos qilib olingan bo‘lib, ular bir-biridan ajralmas hodisadir. Ma’lumki, og‘zaki nutq yozma nutq ko‘nikmalarini hosil qilishga yordam beradi, u yozma nutqdan avval sodir etiladigan hodisadir. Yozma nutq ham o‘z navbatida og‘zaki nutqning yanada aniqroq, to‘g‘riroq bo‘lishiga, mantiqan izchil tarzda shakllanishi va rivojlanishiga yordam beradi.

Bugungi kunda ona tilining matn tuzilishi bilan bog‘liq me’yorlari hamda bu bilan bog‘liq nazariy ma’lumotlardan yozma nutqni ijodiylik tavsifida o‘rgatish, matnning (murakkab sintaktik butunlikning) tuzilishiga xos til xususiyatlarini ta’lim mazmunida aks ettirish, o‘quvchilarning mantiqiy izchillikda, fikrlarni o‘zaro bog‘lanishda ifodalash tarzidagi ijodiy ishlarga monand qobiliyatlarini yuksaltirish maqsadida foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirish kabi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlarga zarurat yuzaga kelmoqda.

Yozma nutq bilan ko‘p ishlash og‘zaki nutqni o‘z-o‘zidan rivojlanib qolishiga olib kelmaydi, chunki yozma nutq va og‘zaki nutq mazmun jihatidan bir nuqtada birlashsa-da, ularning amalga oshish jarayoni inson ongida boshqa-boshqa mexanizmning ishlashi orqali ta’minlanadi. Shuning uchun ularning har biriga alohida e’tibor berish zarur.

M.Saidov 1999-yilda amalga oshirgan ilmiy tadqiqotida “O‘quvchi faoliyatida tez-tez duch keladigan so‘z qashshoqligi, fikrni mantiqan to‘g‘ri bayon qila olmaslik, fikrni mustaqil izchillikda bera olmaslik, bayon qilinishi lozim bo‘lgan fikrlarni mantiqiy bo‘laklarga to‘g‘ri ajrata olmaslik, mavzu talabidan chetga chiqish singari hollar tafakkurning yetarli darajada rivojlanmaganligi, qayta xotirlash xarakteridagi o‘quv topshiriqlaridan keng foydalanish natijasida yuzaga keladi”, deya ta’kidlaydi. Achinarlisi, bugungi kunda ham xuddi shu kabi muammolar dolzarbligicha qolmoqda.

O‘quvchilarning ona tili darslarida olgan bilimlari, hosil qilgan ko‘nikma va malakalarini matn yaratishda qo‘llay bilmasliklariga e’tibor bermaslik, yozgan ijodiy yozma ishlaridagi matniy xatolarni payqamaslik hamda ularni o‘z vaqtida qo‘shimcha mashq va topshiriqlar yordamida tuzatib bormaslik jiddiy metodik muammolarga olib keladi.

Yozma nutqni ifoda etishda o‘quvchi:

- grammatik va mazmun jihatdan to‘g‘ri jumla tuzishi;
- har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llashi;
- fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashi;
- bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqara olishi lozim.

O‘quvchi yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishi uchun o‘qituvchi metodik ishlarni aniq algoritm asosida tashkil etish zarur. S.S.Artemeva o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan quyidagi uch bosqichni ajratadi:

1. Ko‘nikmalarni shakllantirish bosqichi.
2. Ko‘nikmalarni takomillashtirish bosqichi.
3. Nutqiy malakalarni rivojlantirish bosqichi.

Birinchi bosqichda o‘quvchilar so‘zlarni talaffuz qilish, ular ishtirokida gaplar tuzish, bir gapda berilayotgan so‘zlarni keyingi gap bilan bog‘lash, gapni gapga bog‘lovchi vositalar, kirish so‘zlar, ko‘makchilar haqida ma’lumotga ega bo‘ladi, ya’ni leksik va grammatik bilimga ega bo‘ladi.

Keyingi bosqichlarda egallangan bilim va ko‘nikmalarini takomillashtiradi, nutqiy malakalari rivojlanadi, uni yuzaga chiqarish uchun amaliy jihatdan qo‘llay boshlaydi.

Nutqiy malakalarni rivojlantirish bosqichida o‘quvchi og‘zaki va yozma nutqida lisonida to‘plangan so‘z va birikmalardan foydalanadi, bu jarayonda uning so‘z boyligi ortib, monologik va dialogik nutqida keng qo‘llay boshlaydi.

Yozma nutqning murakkabligi shundaki, o‘quvchi ushbu jarayonda fikriy, uslubiy, imloviy va punktuatsion savodxonligini namoyon etishi lozim. Bu murakkab jarayondir. Shu bilan birgalikda yozma nutqning tekshirish, tuzatish, takomillashtirish va qayta yozish kabi bir qator imkoniyatlari ham mavjud. Ammo aksariyat o‘qituvchilar yozma ishni takomillashtirish hamda uni qayta yozish imkoniyatidan foydalanishmaydi. Yangi avlod darsliklarida mazkur jihatlarga alohida ahamiyat qaratilgan: topshiriq

mazmuni, yozish tartibi (yoʻriqnomasi), partadoshi bilan ishlash jarayoni, yozgan matnini takomillashtirishi hamda qayta yozishiga oid yozish strategiyasi belgilab berilgan.

Xulosa qilib aytganda, yozma nutqni rivojlantirish ogʻzaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Yozma ishning maqsadi savodxonlikni mustahkamlashgina emas, balki bogʻlanishli nutq malakasining matn sintaksisi darajasida shakllanishi va rivojlanishi uchun zamin yaratish, oʻquvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlash malakalarini muntazam kommunikativ vaziyatlar orqali rivojlantirib borishdan iboratdir.

**Adabiyotlar:**

1. Артемьева С.С. Характер текста используемого на этапе совершенствования речевьх навиков// Иностраннье язьке в школе. – 1980. 33–37.

2. Саидов М. Ўзбек макгабларининг 5-синфларида она тили таълими жараенида тафаккурни ривожлантирувчи ўкув топшириклари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т., 1999. 4-б.

## СОВРЕМЕННЫЙ АНАЛИЗ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИИ

***Г. А. Мадаминова***

*УРГУ. Республика Узбекистан*

Каждый гражданин имеет право получить знание, гарантированное конституцией Республики Узбекистан. Образование играет значительную роль в воспитании молодёжи Республики Узбекистан. Родина начинается с порога, образование и воспитание детей начинаются в семье. Значит, каждый из нас ответственный за подрастание полноценного, здорового, образованного, преданного Родине поколения.

В условиях, когда во всём мире процесс глобализации набирает обороты, особое значение приобретает развитие общества путём качественного образования молодёжи, являющейся основной опорой в овладении современными знаниями и технологиями, во внедрении их в практику.

Исходя из этого, научный анализ развития системы образования, преобразований в данной сфере и имеющихся проблем становится одной из важнейших задач, стоящих перед разными отраслями науки. В ряде ведущих научных центров и университетов мира ведутся научные исследования по вопросам развития личных и творческих способностей учащихся и студентов, стимулирования их самостоятельного мышления, перехода от традиционного обучения к модульному, ориентирования на профессиональную деятельность, вовлекая их в самостоятельную работу в процессе обучения.

В этом плане важное значение имеют выводы, сделанные на основе международных исследований по результатам внедрения в сферу опыта, оправдавшего себя на практике, служащего повышению качества образования. После обретения Узбекистаном независимости в системе образования, как и во всех сферах жизни общества, стали проводиться широкомасштабные реформы. В этом процессе, наряду с достижениями, было выявлено наличие ряда недостатков и проблем. «Мы должны дать достойное образование нашему молодому поколению, стимулировать его интерес к науке и знаниям.

Необходимо, — подчеркнул руководитель государства, — развивать систему дошкольного образования, укреплять материально-техническую базу учреждений среднего и высшего образования, кардинально повысить качество научного и учебного процессов» [1].

Для улучшения качества образования и выхода его на новый уровень, в республике был осуществлен ряд мероприятий, приняты государственные программы. Важное значение в изучении вопросов осуществления реформ в системе образования, имеют областные и региональные особенности развития данной сферы.

Не умаляя достижения советского периода, необходимо остановиться о целом ряде существовавших в сфере образования проблем и недостатков. В частности, очевиден тот факт, что к 1980-м годам система образования в республике стала отставать от требований времени. Это наглядно видно при сравнении достижений в сфере образования в бывших союзных

K. Mavlonova ONA TILI TA’LIMIDA YOZMA NUTQNI O‘STIRISH MUAMMOLARI ................ 206
Г. А. Мадаминова СОВРЕМЕННЫЙ АНАЛИЗ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИИ .............. 208
Ya. Madaminova OILADA MEHNATSEVARLIKKA O‘RGATISH IQTISODIY TARBIYA OMILI 210
Р. К. Мамбетназарова РОЛЬ ЖЕНЩИН УЗБЕКИСТАНА В ОБРАЗОВАНИИ И НАУКЕ ........... 212
Г. Ў. Миразимова, Н. Хусанова ХОТИН-ҚИЗЛАРНИ ТАЗЙИҚ ВА ЗЎРАВОНЛИКДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШ БУГУННИНГ ТАЛАБИ ........ 215
S. X. Matsaidova, Sh. R. Qo‘shnazarova TABIIY FANLAR BO‘YICHA O‘QUVCHILARDA HAYOTIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA STEAM YONDASHUVNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 219
A. E. Matchanova, G. R. Saparbayeva XORAZM VILOYATI GASTROTURIZMINI RIVOJLANISHIDA MILLIY TAOMLARNING RO‘LI ........ 220
Н. С. Матязова, Ш. Д. Абдуллаева ХОРАЗМ ДОСТОНЛАРИДА ПОРТРЕТ БИЛАН АЛОҚАДОР МИФОЛОГИК ТАСВИРЛАР ........ 222
Н. Р. Маҳкамова ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ ЗАМОНАВИЙЛАШТИРИШДА АЁЛЛАРНИНГ ЎЗ САЛОҲИЯТЛАРИНИ НАМОЁН ҚИЛИШ ИМКОНИЯТЛАРИ ВА ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ ........ 225
Л. С. Махмутходжаева РОЛЬ ЖЕНЩИН В НАУКЕ УЗБЕКИСТАНА И СОЗДАНИЕ ЦИФРОВОЙ БАЗЫ ДАННЫХ О ЖЕНЩИНАХ-УЧЕНЫХ ........ 228
N. S. Mirzayeva MAQOL LUG‘ATLARINING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI VA ULARNING ASOSIY MUAMMOLARI ........ 232
Т. А. Мирхалилова, Х. А. Мирзаулукова АБУ АЛИ ИБН СИНА КАК УЧЕНЫЙ - ЭНЦИКЛОПЕДИСТ И ЕГО ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ. ........ 234
Н. М. Муллаахунова ИСКУССТВО НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ......... 236
A. A. Musayeva BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIK JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 238
Н. А. Мустафаева ФАН ФИДОЙИЛАРИ – ЎЗБЕКИСТОН ИЛМ-ФАНИ РИВОЖИГА ҲИССА ҚЎШИБ КЕЛАЁТГАН АКАДЕМИК АЁЛЛАР ........ 240
Р. Х. Муртазаева ПОДГОТОВКА ЖЕНЩИН-ЛИДЕРОВ – НЕОТЪЕМЛИМЫЙ ЭЛЕМЕНТ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА ........ 243
Э. Ш. Назирова, Ш. Б. Абидова, М. Узакова, Н. З. Абдурахмонова ЎЗБЕК ТИЛИ ЎҚУВ ЛУҒАТЛАРИНИНГ ЭЛЕКТРОН ПЛАТФОРМАСИНИ ЯРАТИШ ........ 246
М.А. Нурматова. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШНИНГ ҚАДРИЯТ СИФАТИДА НАМОЁН БЎЛИШИ. ........250
D. M. Nasriyeva ISAJON SULTON ASARLARIDA LEKSEMALARARO SEMANTIK MUNOSABATLAR LINGVOUSLUBIY VOSITA SIFATIDA ........ 252
М. Насритдинова РИВОЖЛАНИШДАН ОРТДА ҚОЛГАН БОЛАЛАРНИ САНЪАТ ВОСИТАСИДА СОҒЛОМЛАШТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ .......... 254
M. N. Nurmamatova MEHNAT TA’LIMI JARAYONIDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. ........ 256
G. Kh. Nurmatova COLLOCATIONAL POWER AND STATISTICAL MEASURES ........ 258
S. X. Ollaberganova BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA HIKOYA O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQI USTIDA ISHLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 261
I. Otaboyeva BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING IQTISODIY BILIMLARINI OSHIRISHNING AHAMIYATI ........ 262
Б. М. Очилова ОИЛА ВА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ - БАРҚАРОРЛИК ОМИЛИ ........ 263
М. Д. Пардаева АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ “МАҲБУБ-УЛ ҚУЛУБ” АСАРИДА ИНСОН, ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ МАСАЛАСИ ........ 265
А. К. Пирниязова ТИЛШУНОСЛИК ФАНИ РИВОЖИДА ВА ТАЪЛИМДА ОЛИМАЛАРНИНГ ИШТИРОКИ ........ 268
Sh. Polvonova OYBEK ASARLARIDA KONNOTATIV MA’NONING FONETIK USULDA IFODALANISHI ........ 269
Г. М. Равшанова ТАЪЛИМДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ АМАЛИЁТГА ЖОРИЙ ЭТИШДА РАҲБАР КАДРЛАРНИНГ РОЛИ ........ 271
Д. Ш. Ражабова ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО И ВОСПРИЯТИЕ БАЛАНСА ЖИЗНИ И РАБОТЫ ЖЕНЩИНАМИ, РАБОТАЮЩИМИ В STEM-ОТРАСЛЯХ. ........ 274